


“Yangi Andijon” shahri hududida seysmologik tadqiqotlar olib borilmoqda

O‘zR FA G‘.O. Mavlonov nomidagi Seysmologiya instituti ilmiy xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 12-iyuldagi PQ-5180-sonli “Yangi Andijon” shahrini barpo etish ishlarini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash maqsadida 4 ming gektar maydonni egallagan “Yangi Andijon” shahri hududini seysmik mikrorayonlashtirish xartasini yaratish uchun seysmologik, seysmotektonik va muhandis-seysmologik tadqiqotlarini olib bormoqdalar. Ushbu ilmiy tadqiqotlarda Seysmologiya institutining yetakchi ilmiy xodimlari g.-m.f.d., prof. V.A.Ismailov, f.-m.f.d. R.S.Ibragimov, f.-m.f.n. U.A.Nurmatov, f.-m.f.n. A.X.Ibragimov, g.-m.f.n. Yu.M.Sodikov hamda 20 nafar ilmiy xodim va muhandislardan iborat jamoa ishtirok etmoqda.





“Yangi Andijon” shahri hududini seysmikligini baholash maqsadida 5 ta punktda seysmometrik stantsiyalar o’rnatildi. Hozirda bu seysmik stantsiyalar tadqiqot maydoni va uning atrofidagi hududlarda sodir

bo'layotgan zilzilalarni qayd etib, qurilish maydonining seysmik faolligini taxlil qilishda tadqiq etilmoqda. Shuningdek, 332 ta punktda seysmorazvedka va 80 ta punktda elektrorazvedka dala ishlari olib borildi. Hozirgi kunda o'rganilayotgan hududning 200 ta punktda mikroseysmik to'lqinlar qayd qilingan bo'lib, olingan ma'lumotlar natijasiga ko'ra har bir punktda seysmik jadallik baholash tadqiqotlari olib borilmoqda.





Ilmiy tadqiqotlar natijasida yaratiladigan seysmik mikrorayonlashtirish xarita “Yangi Andijon” shahri hududida seysmik mustahkam bino va inshootlarni loyihalash-qurilish ishlariga asos sifatida xizmat qiladi.

Ma'lumot o'rnida: Yangi shahar bosh rejasiga ko'ra 4 ming ga adirliklar ustida 411 ming aholi yashashi ko'zda tutilgan, 1439 ga maydonda ko'p qavatli turar-joy massivlari, savdo maskanlari va kichik sanoat zonalari, 1820 ga maydonda yashil hududlar, 223 ga maydonda esa xizmat ko'rsatish joylari bunyod etilishi rejalashtirilgan.